



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “31” may

BUYRUQ № 128

Toshkent sh.

**“Sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligini aniqlash bo‘yicha
uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligini aniqlash bo‘yicha uslubiyatni xalqaro tajribalardan foydalanib yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Yoqilg‘i va energiya balansini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 31- iyuldagi “Sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligini aniqlash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 15- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov